QASHQADARYO VILOYATI
KASBI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180600, Kasbi tumani, Mustaqillik ko‘chasi. Faks (+99875) 642-24-66, N.Boyturdiyev@exat.uz

2022 - yil 7 - sentabr 316-4-61-Q/22 Kasbi tuman hokimligi

Kasbi tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarda fuqarolar va transport vositalarining harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilari o`rnatish to`g`risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to`grisida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, “Yo’l harakati Qoidalari to’g’risida“gi Qonunining 7-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo`l harakati Qoidalari” talablariga asosan Kasbi tumani hududida yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash bo`yicha profilaktik-ogohlantirish va og`ir oqibatli yo`l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo`lgan keng ko`lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta`minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N

1.Kasbi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o`rnatilishi lozim bo`lgan yo`l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo`l belgilarini o`rnatishga ruxsat berilsin.

2.Kasbi tuman Ichki ishlar bo`limi boshligi F.Asadov, tuman ichki ishlar bo`limi Yo`l harakati xavfsizligi bo`linmasi boshlig`i G`.Xusenov va tuman Yo`llardan foydalanish unitar korxonasi direktori O.Siddiqovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va

transport vositalarini harakati xavfsizligini ta`minlash, yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo`l belgilarini o`rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Qaror “SADOQAT” gazetasiga e`lon qilinsin hamda hokimlikning kasbit.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4.Qaror rasman e`lon qilingan kundan e`tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari T.Tursunov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **T.A.Meyliyev**

Kasbi tuman hokimining
2022 yil 7 sentabrdagi
316-4-61-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo`llari va markaziy ko`chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta`minlash yo`l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o`rnatilishi lozim bo`lgan yo`l belgilari va manzili

RO`YXATI

№	Yo`l belgisi o`rnatilgan manzil nomi	Yo`l belgisini nomi
1	4P90 “Qarshi shahri-Beshkent shahri-Kasbi markazi-Koson shahri” avtomobil yo`lining 44 km 700 ПКda joylashgan Kasbi MFYdagi “G‘ani ota” choxonasi yonida	3.27 "To`xtash ta`qiqlangan"
2	4K322 “Kasbi shahri-Komilon qishlog‘i-Qatag‘on qishlog‘i” avtomobil yo`lining 4 km 500 PKda joylashgan “Komilon” to‘yxonasi yonida	3.27 "To`xtash ta`qiqlangan"
3	4K322 “Kasbi shahri-Komilon qishlog‘i-Qatag‘on qishlog‘i” avtomobil yo`lining 12 km da joylashgan “Qatag‘on” qishlog‘i oziq-ovqat bozori yonida	3.27 "To`xtash ta`qiqlangan"